“Ўзбекистон ТМК” АЖ
Бошқарув раисининг тижорат
ва маркетинг масалалари
бўйича ўринбосари
А.А Турдибаевга

“Ўзбекистон ТМК” АЖ
Бошқарув раисининг операцион
масалалари бўйича ўринбосари
У.Н. Рузиевга

Хизмат хати

Навоий вилояти Томди туманида жойлашган Перенат аммония ишлаб чиқариш геотехнологик цехи 1-сонли участкасини электр энергияси билан таъминлаш учун “Навоийуран” ДК Учқудуқ ИЧМ томонидан 2026 йил 14-июлда берилган 22.03-13-625-сонли техник шартларга асосан **электр таъминоти лойиҳа, қурилиш монтаж ишлари ва зарур қурилмаларни етказиб бериш** бўйича Сиздан, махсус лицензияга эга ташкилот билан белгиланган тартибда шартнома расмийлаштириш учун тегишли бўлимга кўрсатма беришингизни сўрайман.

Илова: Техник шартлар. 2 варақда

“Ўзбекистон ТМК” АЖ
НМ ва ҚҚИЧ заводи директори **И.С. Асадов**

Ижрочи: Бош энергетик
Носиров И.Ж.
Тел: +998 93 182 33 82

"O'ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI" AJ
NM VA QQICH ZAVODI
Kirish № 1576
2026 y. "16" 07

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

“NAVOIYURAN”
Davlat korxonasi

«Uchquduq»
ishlab chiqarish maydoni

210900, Uchquduq tumani, «Bozdun» OFY
Geotexnologik koni ma`muriy binosi
tel.: +(99879) 507 6161
e-mail: uchkuduk@navoiyuran.uz

REPUBLIC OF UZBEKISTAN

State – owned Enterprise
“NAVOIURANIUM”

«Uchkuduk»
production site

210900, Uchquduq district, «Bozdun» VCA
Administrative building of the geotechnical mine
tel.: +(99879) 507 6161
e-mail: uchkuduk@navoiyuran.uz

14 iyul 2026 yil. **22.03-13-625-son**

Texnik shartlar to‘g‘risida

“O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI” AJ ga.

“Navoiyuran” DK “Uchquduq” IChM “Zarafshon” GTKga qarashli 6 kV kuchlanishli L-S-5 va L-S-7 havo elektr uzatish tarmoqlariga ulanish bo‘yicha TEXNIK SHARTLAR.

“O‘zbekiston TMK” AJ tasarrufidagi perenat ammonniy ishlab chiqarish bo‘yicha geotexnologik sexi 1-uchastkasi istemol quvvati 350 kVt, elektr ta’minoti ishonchliligi bo‘yicha II toifa bo‘lgan tashqi elektr ta’minotini amalga oshirish uchun “Navoiyuran” DK “Uchquduq” IChM “Zarafshon” GTKga qarashli 6 kV kuchlanishli L-S-5 va L-S-7 havo elektr uzatish tarmoqlariga ulanish bo‘yicha quyidagi texnik shartlarni bajargan holda ulanish mumkin:

1. Obyektning tashqi elektr ta’minotini amalga oshirish uchun 6 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmog‘i “L-S-5” 23-I sonli va “L-S-7” 23-II sonli tayanchlariga ulanish bo‘yicha elektr ta’minoti loyihasi (ketingi o‘rinlarda – loyiha) ishlab chiqilsin.
2. Obyektni elektr energiyasi bilan ta’minlash uchun kuchlanishi 6 kV bo‘lgan “L-S-5” va “L-S-7” HEUT ning 23-I va 23-II sonli tayanchlariga 6 kV kuchlanishli YAKNO orqali ulanish ko‘zda tutilsin.
3. Obyekt elektr ta’minoti uchun transformator podstansiyasi o‘rnatish va uni elektr energiyasi bilan ta’minlovchi 6 kV kuchlanishli kabel tarmog‘ini qurish ishlari loyihada ko‘zda tutilsin. Kuch transformatorlari quvvati, elektr tarmog‘i uchun kuch kabellari turi va parametrlari loyiha asosida aniqlansin.
4. Yangi o‘rnatiladigan elektr qurilmalar uchun “Elektr qurilmalarni tuzilish qoidalari” talablariga asosan obyekt elektr qurilmalarining qisqa tutashuv toklarini hisobga olgan holda, rele himoyasi va avtomatikasi (RH va A) loyihada ishlab chiqilsin. O‘rnatiladigan RH va A qurilmalarining ishlash o‘rnatmalari ‘L-S-5” va “L-S-7” HEUTning RH va A qurilmalari ishlash o‘rnatmalari bilan muvofiqlashtirilsin.
5. Elektr energiyasi istemolini hisoblash uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 319-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari” ga asosan, Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (EHNAT) ga mos keladigan elektr hisoblagichlar (ikkita interfeysli) qo‘llanilsin va ushbu elektr hisoblagichlar “Navoiyuran” DK va “HET” AJ Navoiy hududiy filiali Tomdi tumani elektr ta’minoti korxonasi EHNAT tizimiga ulansin.
6. Reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish qurilmalari o‘rnatilsin. Ushbu qurilmalarning turi, quvvati va eng maqbul o‘rnatish joyi loyiha asosida aniqlansin.
7. Quyosh fotoelektr stansiyalari loyihalashtirilsin va o‘rnatilsin.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: ED68748752

8. "Navoiyuran" DK elektr tarmoqlarida va/yoki energotizimdagi avariya holatlari hamda quvvat tanqisligi sababli iste'molga kiritiladigan cheklovlar vaqtida obyekt elektr ta'minoti uzluksizligi kafolatlanmaydi va bunda yetgan zarar uchun "Navoiyuran" DK javobgar hisoblanmaydi.

9. Loyiha "Navoiyuran" DK "Uchquduq" IChM va "O'zenergoinspeksiya"ning Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi bilan o'rnatilgan tartibda kelishilsin.

10. Obyektni elektr tarmoqlariga ulashni amalga oshirish uchun "Navoiyuran" DK "Uchquduq" IChMga quyidagilar taqdim etilsin:

10.1 Obyekt va "Navoiyuran" DK "Uchquduq" IChM o'rtasida elektr tarmoqlarining balans mansubligi va ekspluatasiya qilish bo'yicha javobgarlik chegarasi to'g'risidagi dalolatnomaning bir nusxasi.

10.2 Obyekt elektr xo'jaligi uchun javobgar shaxs to'g'risidagi ma'lumotnomalar.

10.3 "Navoiyuran" DK "Uchquduq" IChM va TDG guruhi bilan tezkor muloqotlar olib borish hamda Obyekt elektr qurilmalarini ta'mirga chiqarish uchun ta'labnoma berish huquqiga ega bo'lgan hodimlarning tasdiqlangan ro'yxati.

10.4 Obyekt RH va A qurilmalarining ishlash o'rnatmalari kartalari.

10.5 Elektr hisoblagichning muvofiqlik sertifikati va pasporti nusxalari.

10.6 Elektr hisoblagichni o'rnatish va tamg'alash to'g'risidagi dalolatnoma nusxasi.

10.7 Obyekt elektr ta'minotining bir chiziqli sxemasi nusxasi.

10.8 Obyekt va "O'zenergosotish" AJ o'rtasida tuzilgan elektr ta'minoti shartnoma nusxasi.

10.9 Obyekt va "Navoiyuran" DK o'rtasida elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha tuzilgan shartnoma nusxasi.

11. Elektr tarmoqlarini qurish ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 26-dekabrdagi "Elektr tarmig'i xo'jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 1050-sonli qarori ta'lablariga muvofiq bajarilsin.

12. Obyektning istemol quvvati mazkur texnik shartlarga asosan 350 kVt/soatdan ortganda obyekt elektr ta'minotidan to'xtatiladi.

13. Texnik shartning amal qilish muddati bir yil.

"Navoiyuran" DK "Uchquduq" IChM
Ishlab chiqarish boshlig'i **F.A. Bozorov.**

Ijrochi. Muxiddinov M.M.
Tel: 507-61-13